

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 657 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
С.С. Исмаилов	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir	45
Kursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish	49
Idirisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini.....	53
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран	69
Буранова Лола Вахобовна	
Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
Babamatov Tolib Hakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций	116
Умида Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari	138
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
Jumanazarova Z.K.	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri	154
Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich	
Oliygochlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari	158
Adizov Sanjar Rashidovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish	165
Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyova Shoxista Qahramon qizi	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
Касимова Зилова Гуламиддиновна	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantirish	182
Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li	
Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане	186
Шахзод Сайдуллаев	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish	192
Ahmedov Komron Muhammadaliyevich	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	196
Quyjanov Xurshid Abdullayevich	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari	200
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati.....	206
Normurzaev Umid Xolmurzaevich	
Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства	214
Нурутдинова Зухра Алишеровна	
Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati	220
Madaminova Sanobar Askarovna	
Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari.....	226
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	
Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyati tahlili.....	230
Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish.....	234
Uzakova Umida Ruziyevna	
O'zbekistonda turistik majmualarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari va yondashuvlarining metodologik jihatlarini.....	241
Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li	
Aktiv va reaktiv quvvatlari tushunchasi va ularni soliqqa tortishdagi mavjud muammolar	247
Boykabilov Bahodir Mustafayevich	



Kichik sanoat zonalari korxona va mahsulotlar raqobatbardoshligini baholashga uslubiy yondashuv	251
Ozoda Batirovna Sakiyeva	
Investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy jihatlari	255
N.N.Zikrillayev	
Hududlarda turizm tarmoqlari infratuzilmasi va uni rivojlantirishni boshqarishning metodologik jihatlari	263
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
The connection of legal protection of geographical indications and state's economic growth	268
Almosova Shahnoza Sobirovna	
Kichik biznesning integratsiyalashuv mexanizmlarini shakllantirish	273
Israilov Rustam Ibragimovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
D.D. Suvanova	
Оптимизация маркетинговой деятельности вузов узбекистана для привлечения абитуриентов	283
Шамшиева Наргизахон Носирхужа кизи	
Davlat budjetidan aholini uy-joy bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari	290
Xannarov Komiljon Karimovich	
Tijorat banklarida transformatsiyalashuv jarayonlarining tahlili	296
Yoqubov Murodjon Valibekovich	
Роль инновационных инфраструктур в обеспечении конкурентоспособности промышленных предприятий	302
Каримов Хожакбар Махамаджон угли	
O'zbekiston qishloq xo'jaligida Osiyocha ishlab chiqarish usuliga asos solinishi	306
Abdulla Abduqodirov	
Kichik biznes korxonalari ishlab chiqarishida innovatsion jarayonlarni tadqiq qilish yo'llari	312
Nasrullayev Feruz Furqatovich	
Ijtimoiy-iqtisodiy adolat – barqaror rivojlanish kafolati	318
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
“Istiqlol” memhonxonasi reklama faoliyati tahlili	322
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy belgilovchi omillar	328
Xaydarov Xurshidbek Latipjonovich	
Enhancing Industrial Efficiency through Integrative Sustainability Approaches	334
Kholmukhamedova Feruza	
Современные способы получения нефтяных битумов	338
Юлдашев Норбек Худайназарович, Махмудов Мухтор Жамолович, Комолов Руслан Илхомбекович	
O'zbekistonda agrobiznes orqali hududlarni rivojlantirish masalalari	342
Islomov Jamshed Davronovich	
Зарубежный опыт трансформации железнодорожной транспортной системы	347
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
Sog'liqni saqlash sohasida davlat xususiy sherikligini tashkil etishning mintaqaviy xususiyatlari	351
Qurbanov Jumanazar Omonovich	
Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda hisob siyosatini shakllantirish	354
Uzakov Utkir Abdusattarovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	357
Gulbayeva Feruza Islamovna	



Ta'lim muassasalarida namunaviy shtat, jadvallarni tuzish tartiblarini takomillashtirish	364
Ortiqov Xamroqul Abdumajidovich, Boliyev Bahromjon Rustam o'g'li	
Mamlakatimizda turizm sohasini istiqbolda rivojlantirishga ta'sir etuvchi ekzogen omillar tahlili	369
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining masofaviy va boshqa xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish masalalari.....	378
Ortiqov Oybek Abdullayevich	
Transport infratuzilmasining xususiyatlari.....	390
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Asosiy vositalarni xalqaro standartlar asosida hisobga olish tartibi	394
Shermamatov Sirojiddin Xaydarovich	
Logistika jarayonlarida raqamli yechimlar.....	399
Yarashova Vasila Kamalovna, Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
To'g'ridan to'g'ri sug'urta qilish operatsiyalari bo'yicha daromadlarning hisobini takomillashtirish.....	403
Abdusaidov S.J.	
Venchur kapitali: kelib chiqish tarixi va ilg'or horijiy tajribalar.....	409
Do'stov Firuz Ilxomovich	
Анализ статистического исследования рынка паломнического туризма в республике узбекистан	414
Мустаева Шохида Саъдуллаевна	
Структурно-функциональный анализ гастрономического туризма в республике узбекистан	420
Салиева Екатерина Сергеевна	
Вопросы привлечения внешнего финансирования металлургических предприятий в узбекистане.....	427
Татьяна Будей	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning afzalliklari	431
Khusanov Nodirbek Djumanazarovich	
Innovatsion g'oyalar va yangi ilmiy ishlanmalar asosida innovatsion mahsulotlar yaratishning boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish yo'llari.....	437
Daliyev Xusan Xojakbarovich	
Macroeconomic factors in the development of the banking performance	442
Mamadiyorova Madina Nuriddin kizi, Dr.Susanti Kurniawati, X.S.Umarov	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	449
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
Ecological sustainability and trade: economic and environmental implications of uzbekistan's accession to the WTO	453
Mironshokh Sattarov, Denny Andriana, Sirojiddin Yangiboyev	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishni o'ziga xos tendensiyalari.....	458
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning ilmiy – nazariy asoslari.....	468
Davletov Po'lat Torabayevich	
Ekoshahar tashkil etishda "yashil" belbog' hamda "yashil" makonning o'rni	476
Karimova Muqaddas Zabixullayevna	
Необходимость изучения механизма управления социально-трудовыми отношениями при переходе республики узбекистан на "зеленую" экономику.....	479
Раматов Зафарбек Жуманиязович	



Klasterlarning rivojlanish tarixi, ularning o'ziga xos xususiyatlari va raqobatbardoshlikdagi o'rni.....	482
Sherkulov Shohruh Erkin o'g'li	
Soliqlarni raqamlashtirish: QQS ning muammo va istiqbollari	486
Abdulxayeva Shahnoza Muhammadiyevna	
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida sug'oriladigan yerlarning unumdorligini oshirish yo'llari.....	492
Xo'jageldiev Chorshanbi Pardayevich	
Topical issues of analytical support for financial resources management of business entities in modern conditions	498
Jiyanova Nargiza Esanboyevna	
Исследование цифровой валюты центрального банка как новой формы денег	506
Якубова Шамшинур Шуҳратовна	
Структуризация прибыли предприятия, факторы формирования и выявление резервов её повышения.....	513
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Xorijiy mamlakatlarda oilaviy migratsiya masalalari.....	517
Kadirova Zulayho Abduhalimovna, Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafvna	
Ta'limda innovatsion tadbirkorlikning tarixiy rivojlanishini asosiy bosqichlari.....	522
Madaminova Xusnidaxon Shuxratovna	
Integratsiya jarayonida bog'dorchilikda klasterlarni barpo qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar va tarkibiy o'zgarishlarga ta'siri	526
Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich	
Banklarning moliyaviy xavfsizligi va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri.....	532
Mamatov Mamajan Axmadjonovich	
Qishloq xo'jaligida pillachilik biznesini rivojlantirish istiqbollarini belgilash jarayonini ekonometrik modellash.....	535
Turgunov Odilbek Maripovich	
Zamonaviy pul-kredit siyosatining iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi rolini baholash	542
Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich	
The unique characteristics of governance systems in various countries: a comparative analysis.....	549
Bozorboev Otamurod Nurmuxammad ugli, Denny Andriana, Usmanov Bunyod	
GREEN ECONOMY AND GREEN CHEMISTRY: principles, priorities, advantages and it's impact to the future.....	553
Fozilova Firangiza Komilovna, Zokirova Ferangiz Zafarovna	
Kichik biznesda yoshlar tadbirkorligini shakllantirish va rivojlantirishning mohiyati va ahamiyati.....	557
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari	562
Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li	
Temir yo'l transportida yuk tashish samaradorligining iqtisodiy negizi tushunchasi va xususiyati.....	568
Shukurova Sultana Said Sultanovna	
Tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarining hozirgi holati va tendensiyasi.....	572
Hayitova Nigora Ilxomovna	
Mamlakat tashqi qarzini boshqarishning samarali yo'llari	576
Choriyev Fazliddin Ishkuvatovich	
A comparative analysis of investment risk management in the non-profit sector	583
Rakhimov Shoxrux Abduqaxxor O'g'li, Muhamad Arief Ramdhany	
Роль налога на доходы физических лиц в формировании бюджета узбекистана.....	587
Наврозова Фароғатхон	



Принцип работы электронных денег в форме электронных кошельков в банковском секторе	592
Ширинова Шохсанам Собир кизи	
Дальнейшее повышение эффективности деятельности постов удаленного электронного декларирования путем преобразования их структуры и алгоритма взаимодействия	598
Вахидова Феруза Алимовна	
Ishbilarmonlik muhitining mohiyati hamda uni baholashning zamonaviy usullari	603
Majidov Faxriddin Abdurazzok o'g'li	
Davlat moliyaviy siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati	609
Jabborova Dilafruz Sodiq qizi	
Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida kichik biznes subyektlari faoliyatining ahamiyati	614
Ismoilov Narimonjon No'monjon o'g'li	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	619
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Telekommunikatsiya sanoatining rivojlanish tendensiyalari	625
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
O'zbekistonda xizmatlar sohasi va uning amaldagi holati tahlili	631
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning atrof-muhitni yaxshilash va iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish munosabatlari tahlili	637
Raximova Mohinur Dilshod qizi	
OTMlarining ta'lim faoliyatini boshqarish jarayonida qo'llaniladigan innovatsion shakl va metodlar	645
Esanova Shohida Utkirovna	
Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashda moliyaviy modellashtirishning muhim jihatlari	651
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich, Zokirova Feruza Farxod qizi	



INVESTITSIYA LOYIHALARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA MOLIYAVIY MODELLASHTIRISHNING MUHIM JIHATLARI

Rabimqulov Sherzod Murtozayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Iqt. fan. bo'yicha falsafa doktori(RhD)

Zokirova Feruza Farxod qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Baholash ishi va investitsiyalar" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada investitsiyalar hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar samaradorligini baholash va jalb qilingan kapitalning miqdor va muddat jihatdan to'liq qoplanishini ta'minlash hamda loyihaga investitsiya jalb qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlashda moliyaviy modelashtirishning ahamiyati o'rganilgan, xalqaro tajribadan kelib chiqib, xulosa va tavsiyalar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy model, prognoz ko'rsatkichlar, investitsiya, kapital, koeffitsiyent, likvidlik, diskont, aktivlar, rentabellik.

Abstract: The article examines the role of franchising in attracting local investment in small businesses and ensuring their effectiveness, as well as the importance of franchising in reducing investment risks in the transition from small to medium and large businesses, and discusses conclusions and recommendations based on international experience.

Key words: financial model, forecast indicators, investments, capital, ratio, liquidity, discount, assets, profitability.

Аннотация: Статья исследует роль финансового моделирования при оценке эффективности проектов, финансируемых за счет инвестиций, и обеспечении полного возмещения привлеченного в проект капитала по объему и сроку, а также определении финансово-экономических показателей, важных для привлечения инвестиций в проект. На основе международного опыта рассмотрены выводы и рекомендации.

Ключевые слова: финансовая модель, прогнозные показатели, инвестиции, капитал, коэффициент, ликвидность, дисконт, активы, рентабельность.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan investitsiyalar samaradorligini oshirish, ular hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarning hayotiyiligini ta'minlash olib borilayotgan investitsiya siyosatining muhim jihatlari hisoblanadi. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashda prognozashtirish jarayonlaridagi murakkablikdan qochish natijasida yuzaga keladigan asosiy kamchilik va muammolar loyiha asosida barpo etiladigan iqtisodiyot real sektori korxonalarining kelgusidagi iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligiga jiddiy salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Investitsiya loyihalari hayotiyiligini ta'minlash nafaqat investitsiyalar samaradorligini oshiradi, balki iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy investitsiyalarning kirib kelish salmog'ining keskin o'sishiga zamin yaratadi.

So'ngi yillarda iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida iqtisodiyotning yetakchi real sektori korxonalarini xususiylashtirish, ulardagi eksklyuziv imtiyozlarning bekor qilinishi xususiy sektorning faoliyat ko'lamini kengaytirish bilan bir qatorda yangi loyihalarni amalga oshirish va ularga investitsiyalar jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Mazkur holat markazlashgan investitsiyalardan farqli ravishda xususiy sektor tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash bo'yicha mutahassislarga hamda ilmiy-nazariy va amaliy uslubiyatlarni rivojlantirishga zaruriyat tug'diradi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-iyulda "Kichik sanoat zonalari hamda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari tadbirkorlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi VMQ-432 sonli qarori qabul qilindi va unga ko'ra tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajarilgan investitsiya va ijtimoiy majburiyatlarni qabul qilish tartibi belgilandi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi 467-son qarori bilan "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2024-yil 30-yanvardagi 55-con qaroriga



o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, hujjat bilan xo'jalik yurituvchi subyektlarning EBITDA (Earnings Before Interest, Taxes, Depreciation, Amortization and Management) asosidagi rentabellik darajasini aniqlashga qo'yiladigan talablar yumshatilmoqda.

Yuqorida keltirilgan qarorlar tadbirkorlik subyektlariga investitsiya loyihalarini amalga oshirishda bir qator yengilliklarni yaratish bilan birga loyihalar samaradorligini ta'minlash borasida muhim mas'uliyatni ham yuklaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy va moliyaviy jihatdan samarali investitsiya loyihalarini tanlab olish bo'yicha tegishli xulosalar ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishda ularning kelgusidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash, muhim ahamiyatga ega. Investitsiya loyihalari samaradorligi borasidagi tadqiqotlar umumiy iqtisodiy muammo sifatida bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Iqtisodchi olim O. Astanakulov fikricha, "Har bir iqtisodiy-ijtimoiy jarayon haqida aniq xulosa chiqarish va kelgusi istiqbolini belgilash bo'yicha ta'sirchan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ularning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganishni taqazo etadi. Investitsiya ham ko'p qirrali jarayon bo'lib, ko'plab omillar ta'sirida o'zgarib boradi"[6].

Investitsiya loyihalarini baholashda asosiy vazifalar iqtisodchi olim R. Bozorov fikricha, "Moliyaviy baholash investitsiya loyihasini amalga oshirish jarayonidagi likvidligini tahlil qilishda ishlatiladi. Boshqacha aytganda, moliyaviy baholash vazifasi, loyihani belgilangan muddatlarda amalga oshirish uchun, uning jami moliyaviy majburiyatlarini bajarishga korxonaning yetarli moliyaviy resurslari bo'lishini belgilashdir. Iqtisodiy baholash esa, investitsiya loyihasining potensial qobiliyati, shu loyihaga qo'yilgan mablag'larning qiymatini saqlab qolishda va ularning o'sishi sur'atini yetarli darajasini yaratib berishda foydalaniladi" [7].

Amaliyotchi iqtisodchi olimlar D. Strok, D. Ladigin, A. Kaadze fikricha "Investitsiyaviy tahlil "loyihani amalga oshirguncha" yoki "loyihani amalga oshirgandan keyin" emas, balki "loyiha bilan" va "loyihasiz" kompaniyaning faoliyatidagi o'zgarishlar asosida amalga oshirilishi zarur" [9].

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqodlarida investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan omillar, baholash turlari va usullari hamda baholash jarayonlarini amalga oshirish muddatlarining ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirishning ba'zi jihatlari tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqodlarda yoritilgan investitsiya loyihalari samaradorligini baholashni takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflarning barchasi loyihalar kelajagini prognozlashtirish asosida amalga oshiriladi va moliyaviy modellashtirishning loyihalar samaradorligini baholashdagi muhimligi ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan moliyalashtirilgan loyiha misolida amaliy tahlil o'tkazilgan.

Mazkur mavzuni yoritishda abstrakt-mantiqiy fikrlash, umumlashtirish, taqqoslash, analiz va sintez, tizimli talillar usullardan foydalanilgan. Aniq loyiha misolida loyihaning prognoz ko'rsatkichlari umumlashtirildi, moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlari yillar kesimida talil qilindi va taqqoslandi, moliyaviy koeffitsiyentlarni hisoblashda analiy va sintezdan foydalanildi, tadqiqod asosida olingan natijalar tizimlashtirilgan holda tahlil qilindi, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Noaniqlik har qanday investitsiya loyihasida mavjud bo'lgan risklar ta'sirida kutilayotgan natijaning o'zgarishi bo'lib, nazoratdan tashqarida bo'lgan ko'plab omillarga bog'liq. Masalan, yangi texnologiyalar yoki boshqaruv usullari barcha tarmoqlarda ishlab chiqarish jarayonlarini tubdan o'zgartirib kelmoqda.

Yaqin kelajakda nima kutayotganini bilish va oldindan rejalashtirish foydadan holi emas. Loyihaning tahlili jarayonida moliyaviy modellashtirish (prognozlashtirish) uning samaradorligini yuqori aniqlikda tahlil qilish imkonini yaratadi.

Moliyaviy modellashtirish – bu real yoki taklif qilinayotgan moliyaviy muhitda amal qiladigan tasavvuri-mizdagi mavhum jarayonni qurish. Moliyaviy modellashtirish jarayonida yangi loyihalarni amalga oshirish, kompaniyani rivojlantirish, qimmatli qog'ozlar qiymatini o'zgartirish va boshqa aktiv va obyektlar to'liq yoki qisman tadqiq qilinadi va loyihaning moliyaviy kelajagi moliyaviy modelning sifatiga bog'liq bo'ladi.

Moliyaviy model loyihaning iqtisodini tasavvur qilish va kiritiladigan investitsiyaning samaradorligini baholash imkonini beradi. Aslida boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi har qanday iqtisodiy asos moliyaviy model hisoblanadi va uni tuzish jarayoni moliyaviy modellashtirish deb ataladi. Moliyaviy modellashtirish asosini matematik, ekonometrik va statistik modellashtirish usullari tashkil etadi.



Moliyaviy modellashtrish biznesning barcha javhalarida qo'llaniladi va bu konsepsiya biznesni samarali tashkil etishda, investitsion-bank faoliyati va korporativ boshqaruvda hamda konsalting xizmatlarida beqiyos hisoblanadi.

Moliyaviy model quyidagi savollarga javob beradi:

1. Loyihaga asoslangan biznes nima xisobidan va qancha ishlab topadi?
2. Yo'qotishlar nimadan iborat?
3. Nozik jihatlari nimadan iborat?
4. O'sish nuqtalarini qanday?
5. Biznesni kelajakda nimalar kutmoqda?

Moliyaviy modellashtrishning maqsadi:

1. Moliyaviy-iqtisodiy natijalarni turi xil kirish ko'rsatkichlar asosida prognozlashtirish;
2. Budjetni moliyalashtirish (sotuv budjeti, ishlab chiqarish budjeti, materiallar zaxirasi budjeti, materiallar sotib olish budjeti, master-budjet (balans, moliyaviy natija, pul oqimi));
3. Kompaniya xarajatlarini optimallashtirish yo'llarini topish;
4. Investitsiyalar oqimini chamalash;
5. Kalit ko'rsatkichlar dinamikasini prognozlashtirish.

Moliyaviy modellashtrish turlari:

1. Uch hisobotga asoslangan model (3-Statement Model).

Uch hisobotga asoslangan model – bu integrallashgan model bo'lib, kompaniyaning foyda va zarar to'g'risidagi hisobotni, balans hisobotini va pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotni prognozlashtiradi.

2. Diskontlangan pul oqimi modeli (Discounted Cash Flow (DCF) Model).

Ushbu model kompaniya faoliyati natijasida kelgusidagi pul oqimlarining bugungi qiymatini aniqlash imkonini beradi.

3. Kompaniyani qiyosiy tahlil qilish modeli (Comparable Company Analysis (CCA) Model).

Ushbu modeldan aynan bir tarmoqdagi o'xshash boshqa kompaniyaning ko'rsatkichlaridan foydalangan holda kompaniya qiymatini baholashda foydalaniladi.

4. Kompaniyalar qo'shib olinishi va birlashishi modeli (Merger (M&A) Model).

Kutilayotgan kelishuvdan oldin qo'shib olinish yoki birlashish natijasi bo'yicha kompaniyaning faoliyati modellashtriladi va tahlil qilinadi.

5. Qarz mablag'laridan foydalanib sotib olish modeli (Leveraged Buyout (LBO) Model).

Ushbu moliyaviy instrument qarz mablag'lari hisobiga kompaniya sotib olish tranzaksiyasini baholash uchun tuziladi.

6. Aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish modeli (IPO Model).

7. Budjet va prognozlashtirish modeli (Budget & Forecasting Model).

Budjet va prognoz – bu an'anaviy moliyaviy instrument bo'lib, kompaniyalar kelgusidagi rejalarini tuzishda undan foydalanadi.

8. Kompaniya bo'laklari yig'indisi modeli (Sum of the Parts Model ("SOTP"))

"SOTP" tahlil kompaniyaning alohida biznes-segmentlari qiymati yig'indisi yordamida kompaniyaning umumiy qiymatini aniqlash imkonini beradi va buning yordamida aksiyadorlik kapitali qiymati aniqlanadi.

Davriy belgilariga ko'ra moliyaviy modellashtrishni 2 guruhga ajratish mumkni:

1. Strategik qarorlar qabul qilish maqsadida moliyaviy modellashtrish;
2. Operatsion (taktik) qarorlar qabul qilish maqsadida moliyaviy modellashtrish.

Investitsion loyihalarni, biznesning qiymatini aniqlash, makroiqtisodiy prognozlashtirishga qaratilgan moliyaviy modellar birinchi guruhni tashkil etadi.

Kadrlar motivatsiyasi, xarid siyosati, soliqni optimallashtirish kabi tizimli o'zgarishlar ta'sirida yuzaga kelayotgan samaradorlikni prognozlashtirish maqsadida tuziladigan moliyaviy modellar ikkinchi guruhga kiradi.

Молијавиј моделлаштириш объектига кўра қуйидагиларга бўлинади:

Investitsiya loyihasini baholash uchun tuziladigan moliyaviy model;

Kompaniya faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy modeli;

Qimmatli qog'ozlar kotirovkasi (portfeli)ning dinamikasi modeli;

Makroiqtisodiy darajadagi moliyaviy model.

Modellashtiriladigan obyektning qamrovi bo'yicha moliyaviy modellar:

1. Aniq mavzuga doir;
2. Majmuaviy (kompleks).

Birinchi guruhga alohida olingan biznes-jarayon (yoki biznes-jarayonlar guruhi)ning moliyaviy modeli kiradi. Masalan, soliqni modellashtrish, sotuvni modellashtrish, kompaniyaning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatini alohida modellashtrish va h.k.



Ikkinchi guruhga bir vaqtning o'zida o'rganilayotgan obyektning barcha javhalarini qamrab oladigan moliyaviy modellashirish kiradi. Masalan, kompaniyaning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatini yagona model asosida modellashirish.

Qayta foydalanish imkoniyatiga ko'ra modellar:

1. Betakror (unikal) modellarni moliyaviy modellashirish;
2. An'anaviy (tipovoy) modellarni moliyaviy modellashirish.

Moliyaviy modellarga qo'yiladigan umumiy talablar:

1. Tushunarli bo'lishi. Moliyaviy modelda foydalanilgan ma'lumotlar va yakuniy xulosalar undan foydalanuvchilar uchun tushunarli bo'lishi lozim;

2. Iqtisodiy jihatdan maqsadiga muvofiqligi. Moliyaviy modelga tayyorgarlik va uni detallashtirish xarajatlari uni tuzishdan keladigan samaradan yuqori bo'lishi mumkin emas.

3. Nazorat va ochiqlik. Foydalanuvchi kiritilgan ma'lumotlarni, hisob-kitoblarni tartibi va formulasini hamda hisobotlar mazmunini tushinishi va tekshira olish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

4. Moslashuvchanlik. Ma'lumotlarga oson o'zgartirish kiritish va sezilarli darajadagi xarajatlarsiz yangi natijalarni olish imkoniyati bo'lishi shart.

5. Boshqaruvchanlik. Moliyaviy model shunday tuzilishi kerakki, hisoblangan ko'rsatkichlar ma'lumotlarga bog'langan bo'lishi va kelgusida model muallifi va foydalanuvchi yangi natijalarni ko'rish maqsadida nimani qayerdan o'zgartirish mumkinligini aniq bilishi lozim.

Moliyaviy modelning samaradorligini belgilovchi omillar:

1. Struktura.

Moliyaviy modelning qulay strukturaga ega bo'lishi tahlilchilar uchun zarur ma'lumotlarni yig'ishda yengillik yaratadi.

2. Oddiylilik.

Oddiyligi uni tushunishni osonlashtiradi, ya'ni hajmi jihatidan qanchalik katta bo'lishiga qaramasdan uni o'qish oson bo'ladi.

3. Prognoz (faraz) sifati.

Kompaniya faoliyati natijalarini to'g'ri baholash uchun moliyaviy model aniq voqealikkdagi real farazlarni talab etadi. Kiritiladigan raqamli ma'lumotlar qanday bo'lishidan qat'iy nazar farazlar modellashiriladigan real voqea-xodisalar uchun mos bo'lishi shart.

4. Qayishqoqlik.

Moliyaviy modelning qayishqoqligi, uni turli xil ssenariylarga moslashtirish imkonini beradi. Moliyaviy tahlilchilar turli xil omillardan foydalangan holda moliyaviy modelni yangilash imkoniga ega bo'lishi lozim.

5. Bir qarashda xulosa.

Asosiy e'tibor raqamli ma'lumotlarga qaratilgan bo'lishiga qaramasdan, moliyaviy model bir qarashda jozibador bo'lishi maqsadga muvofiq. Turli xil ranglardan foydalanish va ularning mutanosibligi moliyaviy modelning jozibadorligini hamda o'quvchanligini oshiradi.

Bu modellar odatda uch o'lchamli tamoyil bo'yicha ishlaydi: ma'lumotlar kiritish, hisob-kitob va xulosa. Biz bu tamoyillarni quyidagi uchta hisobotlar modeli, ya'ni ularni kelajak uchun prognozlashtirish yordamida amalga oshiramiz:

Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot: kompaniyaning hisobot davridagi tushumini va uning sof foydaga aylanishini ko'rsatuvchi hujjat;

Pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot: kompaniya moliyaviy resurslarining ma'lum davr davomida umumiy kirimi va chiqimini ko'rsatuvchi moliyaviy hisobot;

Balans: ma'lum bir vaqtda daromadlar va xarajatlar mutanosibligini kapital, aktivlar va majburiyatlarni inobatga olgan holda ko'rsatuvchi hujjat.

Investitsiya loyihasining moliyaviy modelida prognozlashtiriladigan, yuqorida keltirilgan hisobotlar asosida aniqlanadigan moliyaviy koeffitsiyentlarga to'xtalib o'tsak.

Pul oqimlari prognozi asosida aniqlanadigan koeffitsiyentlar:

1. Qarzni qoplash koeffitsiyenti (Debt service ratio) $> 1,0$:

$QQK (sof) = (Sof\ pul\ tushumi + kredit\ to'lovlari) / kredit\ to'lovlari$;

2. Sof diskontlangan daromad (NPV);

3. Ichki foydalilik me'yori (IRR) – bu sof diskontlangan daromad ($NPV=0$) nolga teng bo'lgandagi foiz (i) stavkasi miqdori.

Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot prognozi asosida aniqlanadigan koeffitsiyentlar:

1. Yalpi marja ko'rsatkichi (Cross margin):

$Cross-m = Yalpi\ marja / Sotishdan\ tushum$;

2. Sof foyda marja ko'rsatkichi (Net profit margin):

$NPM = sof\ foyda / sotishdan\ tushum$;



3. Operatsion marja ko'rsatkichi (Operating margin):

Op-margin=Asosiy faol. daromad/sotishdan tushum;

4. Zararsizlik nuqtasi hisobi (Break Even Calculation):

O'zgarmas xarajatlar/(sotishdan tushum-o'zgaruvchan xarajatlar).

Balans hisoboti prognozi asosida aniqlanadigan koeffitsiyentlar:

1. Kapitalning o'rtacha tortilgan qiymati – WACC (Weight average cost of capital):

$WACC = (XK(\text{summa}) \times \%stavka + Kredit(\text{summa}) \times \%stavka) / \text{jami kapital};$

2. Majburiyatning xususiy kapitalga nisbati (debt/equity ratio):

Debt/Equity ratio=majburiyatlar/xususiy kapital;

3. Joriy likvidlik koeffitsiyenti (Current Ratio):

Current Ratio=joriy aktiv/joriy majburiyat;

4. Mutloq likvidlik koeffitsiyenti (Quick ratio):

Quick ratio = (Pul mab+qisqa mud. Debitor)/joriy majburiyatlar.

Keltirilgan koeffitsiyenlarni loyiha misolida ko'rib chiqamiz.

Misol tariqasida "LITORE TEKS" qo'shma korxonasining kalava ipdan oqartirilgan va bo'yalgan mato ishlab chiqarishga qaratilgan loyihasini ko'rib chiqamiz. Loyihaning umumiy qiymati 4 389 705 AQSH dollari, shundan o'z mablag'lari 1 389 705 AQSH dollari, bank krediti 3 000 000 AQSH dollariga teng. Kreditning muddati 5 yil, imtiyozli davr 1,5 yil, foiz stavkasi 8,5% (libor+marja), kredit to'lovlari har chorakda bir marta amalga oshiriladi. Loyihani ishlab chiqarish quvvati yiliga 1850 tonna mato ishlab chiqarishga teng.

1-jadval. Loyihaning moliyaviy tahlili ko'rsatkichlari.

Koeffitsiyentlar	1-yil	2-yil	3-yil	4-yil	5-yil
DSC	2,48	1,56	1,26	1,37	1,55
WACC	8,48%	8,37%	8,38%	8,41%	8,46%
Debt /Equity Ratio	2,16	1,85	1,23	0,62	-
Gross Margin	43%	43%	43%	43%	43%
Net Profit Margin	-34%	14%	16%	17%	19%
Current Ratio	22,3	13,2	15,3	18,1	22,4
Quick Ratio	14,0	8,8	10,9	13,7	18,1
Operating margin	-14%	22%	23%	24%	23%
Debtor Days	11,5	11,5	11,5	11,5	11,5
Creditor Days	14,2	15,2	15,2	15,2	15,2
Stock Days	117,0	66,9	66,7	66,5	66,5
ROA	-12%	14%	17%	20%	22%
ROE	-33%	42%	51%	59%	65%

2-jadval. Loyihaning diskontlangan daromadi tahlili.

NPV; IRR hisobi	0-yil	1-yil	2-yil	3-yil	4-yil	5-yil
Investitsiya	-4139467					
Foyda (zarar) soliqsiz		-194 221	836534	905220	976586	954562
Amortizatsiya		450 000	450 000	450000	450000	450000
Ishchi kapital o'zgarishi		113 178	-217427	(28293)	(28293)	-
Pul oqimi	-4139467	368 957	1069107	1326927	1398294	1404562
Diskont stavka	8,70%					
NPV	65 021					
IRR	9,2%					
Break Even (quvvat)	36%					



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida xulosa qiladigan bo'lsak, investitsiya loyihalarining samaradorligini tahlil qilishdan asosiy maqsad loyihaning kelajagini o'rganishdan iborat va jalb qilingan investitsiyalarning samaradorligi ham bevosita ushbu loyihaning samaradorligiga bog'liq. Loyihaning kelajagini ko'rsatuvchi moliyaviy ko'rsatkichlar bevosita moliyaviy modellashtirish natijasida tuzilgan prognoz hisobotlarga asoslangan holda aniqlanishi o'z-o'zidan moliyaviy modellashtirish loyiha samaradorligi tahlilining muhim jihati ekanligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, har qanday loyihaga jalb qilingan investitsiya resurslaridan samarali foydalanish uchun loyiha tahlili jarayonida moliyaviy modellashtirishdan foydalanish orqali quyidagi muhim jihatlarni aniqlash va nazorat qilish imkoniyati yaratiladi:

1. Prognoz pul oqimlari miqdori va ularning kirim-chiqim muddatlarini yillar va oylar kesimida aniqlash, kredit va boshqa qarz mablag'larini qaytarish grafisini ishlab chiqish aniq ishlab chiqish hamda kelgusida muammoli to'lovlarning oldini olish;

2. Loyihaning kelgusidagi likvidlik darajasini aniqlash, yillar davomida o'zgarish tendentsiyasini ko'rish, salbiy tomonga o'zgarish mavjud bo'lgan davrlar uchun loyihalash jarayonida aniq yechimlar ishlab chiqish;

3. Yalpi va sof marja ko'rsatkichlarini prognoz qilish natijasida mahsulot sotishning optimal narxlarini belgilash, tannarx va davr xarajatlarini nazorat qilish;

4. Loyihani moliyalashtirish maqsadida turli manbalar hisobidan jalb qilingan investitsiyalarning o'rtacha tortilgan qiymatini aniqlash va kapital bozoridagi narxlar bilan solishtirish, narxi yuqori bo'lgan manbalarni almashtirish;

5. Kelgusida loyihadan olinadigan daromadning bugungi qiymatini aniqlash orqali jalb qilingan investitsiyalardan olinadigan real daromani (NPV) hamda nisbatan risk past bo'lgan, muqobil investitsiya ob'ektlaridan olinadigan foyda darajasiga nisbatan ichki foyda me'yorini (IRR) aniqlash va muqobil loyihalar bilan taqqoslash;

6. Loyihaning ishlab chiqarish quvvatlarini o'zlashtirish me'yorlarida zararsizlik nuqtasini aniqlash orqali kelgusidagi faoliyatida o'zlashtirishi shart bo'lgan minimal ishlab chiqarish quvvatini aniqlash.

Yuqorida keltirilgan moliyaviy modellashtirishning muhim jihatlardan samarali foydalanish har qanday loyihaning hayotiylikini ta'minlash orqali jalb qilingan investitsiyalar rentabelligini yuqoriga ko'tarishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон - 2030” стратегияси тўғрисидаги ПФ-158 сонли фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 15-ноябрдаги “Аҳолини кичик ва ўрта бизнесга кенг жалб қилишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 мартдаги “Иқтисодиётнинг базавий тармоқларида лойиҳа ишлари самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2831-сон қарори.
4. Simon Benninga “Financial modeling” тўртинчи нашр, 2014 йил Massachusetts Institute of Technology;
5. Michael Samonas, “Financial forecasting analyses and modeling”: a framework for long-term forecasting, 2015 йил West Sussex, PO19 8SQ, UK.
6. О.Астанакулов, “Инвестиция самарадорлиги ўзгаришига таъсир этувчи омиллар ва уларнинг таъсирини ҳисоблаш усуллари” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021-yil.
7. Р. Бозоров, “Ўзбекистонда инвестиция лойиҳаларининг иқтисодий самарадорлигини баҳолашни такомиллаштириш”, “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журналы. № 2, март-апрель, 2018 йил.
8. Б.Байхонов, М.Бустонов, М.Махмудов, “Инвестиция лойиҳалари таҳлили”, дарслик, Наманган ш. 2021 йил.
9. Д. Строк, Д. Ладыгин, А. Каадзе, “Инвестиционный анализ: методы оценки эффективности предприятия и проектов”, сайт: <https://www.kp.ru/guide/investitsionnyi-analiz>.
10. Jeff Schmidt, “Types of Financial Models” сайт: <https://corporatefinanceinstitute.com>
11. Jeff Schmidt, “What is Financial Modeling?” сайт: <https://corporatefinanceinstitute.com>
12. А.Ақромов, “Корхоналарнинг молиявий барқарорлигини таъминлашда молиявий ҳисоботлар таҳлилининг ролини ошириш”, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2020-yil.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

